



ANALYSIS OF THE POLITICAL MANEUVERS FOR THE APPOINTMENT OF ABDULFATTOH TURA AS HEIR TO THE THRONE OF THE BUKHARAN EMIRATE (BASED ON THE “TURKESTAN COLLECTION”)

Alisher Egamberdiev

PhD Candidate

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulughbeg

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Emirate of Bukhara, Russian Empire, Emir Muzaffar, Sayyid Abdulfattoh, Turkestan Collection, succession crisis, colonialism, vassal statehood, geopolitical mediation, patron-client relations, Bukharan embassy of 1869.

Received: 24.11.25

Accepted: 25.11.25

Published: 26.11.25

Abstract: This study provides a structural analysis of the overt (official-diplomatic) and covert (political-dynastic) objectives of the 1869 Bukharan embassy to the Russian Empire, dispatched by Emir Muzaffar. This research argues that the embassy was not merely an act to normalize diplomatic relations, but a complex strategic maneuver by the Emir to fundamentally alter the succession system within the Emirate of Bukhara through political legitimation from an external patron—the Russian Empire. The study employs historical-comparative, systematic, and critical source analysis methodologies. Its primary source base is the 1869 Russian periodical press, as compiled by V. I. Mezhov in the 27th volume of the Turkestan Collection (Turkestanskiy Sbornik). The analysis reveals that the 1869 embassy pursued a dual strategic objective: first, to formalize vassalage relations with Russia in the new geopolitical reality following the 1868 military defeat; second, to neutralize internal opposition from rebellious elder sons and to secure imperial legitimation for the status of a loyal younger son, Sayyid Abdulfattoh Tura, as heir apparent. This action by Emir Muzaffar demonstrates the limited political agency of a vassal ruler and serves as a prime example of leveraging imperial power to secure dynastic interests. Concurrently, it signified a transfer of the basis of legitimacy for the Bukharan

throne from traditional internal mechanisms to an external political center: St. Petersburg.

ABDULFATTOH TO‘RANI BUXORO AMIRLIGINING TAXT VORISI ETIB TAYINLASH MAQSADIDA AMALGA OSHIRILGAN SIYOSIY TADBIRLAR TAHLILI (“TURKISTON TO‘PLAMI” MA’LUMOTLARI ASOSIDA)

Alisher Egamberdiyev

Tayanch doktorant

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, Rossiya imperiyasi, amir Muzaffar, Sayyid Abdulfattoh, “Turkiston to‘plami”, valiahdlik inqirozi, mustamlakachilik, tobe davlatchilik, geosiyosiy vositachilik, homiy-tobe munosabatlari, 1869-yilgi Buxoro elchiligi.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot 1869-yilda Buxoro amiri Muzaffar tomonidan Rossiya imperiyasiga yuborilgan elchilikning oshkora (rasmiy-diplomatik) va botiniy (yashirin siyosiy-sulolaviy) maqsadlarini tarkibiy tahlil qilishga bag‘ishlanadi. Tadqiqotning asosiy tayanch g‘oyasi shundan iboratki, mazkur elchilik nafaqat an‘anaviy diplomatik aloqalarni me‘yorlashtirish harakati, balki amir Muzaffar tomonidan Buxoro amirligining valiahdlik tizimini tashqi homiy – Rossiya imperiyasining siyosiy qonuniylashtiruvi (legitimlashtiruvi) orqali tubdan o‘zgartirishga qaratilgan murakkab strategik tadbirdir. Ilmiy ishda tarixiy-qiyosiy, tizimli tahlil va manbashunoslikning tanqidiy bayon tahlili uslubiyotlaridan foydalanilgan. Asosiy manbaviy asos sifatida V.I.Mejov tomonidan tizimlashtirilgan “Turkiston to‘plami”ning 27-jildidagi 1869-yilga oid Rossiya imperiyasi davriy matbuoti materiallari xizmat qiladi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, 1869-yilgi elchilik ikki bosqichli strategik muddaoga ega bo‘lgan: birinchidan, 1868-yilgi harbiy mag‘lubiyatdan keyingi geosiyosiy voqelikda Rossiya bilan tobelik munosabatlarini rasmiylashtirish; ikkinchidan, isyonkor katta o‘g‘illardan iborat ichki muxolifatni zararsizlantirish va o‘zining sodiq kenja o‘g‘illaridan biri Sayyid Abdulfattoh to‘raning valiahdlik maqomini imperator orqali qonuniylashtirish. Amir Muzaffarning bu harakati tobe davlat rahbarining cheklangan siyosiy faolligini namoyon etib, imperiya kuchidan o‘z sulolaviy manfaatlarini ta‘minlash uchun foydalanishga urinishining yorqin namunasi bo‘lib, ayni paytda bu Buxoro taxtining

qonuniylik manbasini an'anaviy ichki mexanizmlardan tashqi siyosiy markaz – Peterburgga ko'chishini anglatar edi.

АНАЛИЗ ПОЛИТИЧЕСКИХ МЕР, ПРЕДПРИНЯТЫХ ДЛЯ НАЗНАЧЕНИЯ АБДУЛФАТТАХА-ТЮРЫ НАСЛЕДНИКОМ ПРЕСТОЛА БУХАРСКОГО ЭМИРАТА (НА ОСНОВЕ МАТЕРИАЛОВ «ТУРКЕСТАНСКОГО СБОРНИКА»)

Алишер Эгамбердиев

Базовый докторант

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Бухарский эмират, Российская империя, эмир Музаффар, Сайид Абдулфаттах, «Туркестанский сборник», кризис престолонаследия, колониализм, вассальная государственность, геополитическое посредничество, патрон-клиентские отношения, бухарское посольство 1869 года.

Аннотация: Данное исследование посвящено структурному анализу явных (официально-дипломатических) и скрытых (тайных политико-династических) целей посольства, направленного бухарским эмиром Музаффаром в Российскую империю в 1869 году. Ключевая идея исследования заключается в том, что данное посольство было не просто актом нормализации традиционных дипломатических отношений, а сложной стратегической мерой эмира Музаффара, направленной на коренное изменение системы престолонаследия Бухарского эмирата через политическую легитимацию со стороны внешнего покровителя – Российской империи. В работе использованы историко-сравнительный и системный методы, а также критический анализ источников. Основной источниковой базой служат материалы периодической печати Российской империи за 1869 год, содержащиеся в 27-м томе «Туркестанского сборника», систематизированного В.И.Межовым. Результаты анализа показывают, что посольство 1869 года имело двухуровневую стратегическую цель: во-первых, формализовать вассальные отношения с Россией в геополитической реальности после военного поражения 1868 года; во-вторых, нейтрализовать внутреннюю оппозицию в лице мятежных старших сыновей и легитимировать через императора статус наследника престола одного из своих преданных младших сыновей – Сайида Абдулфаттаха-тюры.

Этот шаг эмира Музаффера демонстрирует ограниченную политическую субъектность главы вассального государства и является ярким примером попытки использовать мощь империи для обеспечения собственных династических интересов. В то же время это означало перенос источника легитимности бухарского престола от традиционных внутренних механизмов к внешнему политическому центру – Санкт-Петербургу.

Kirish. XIX asrning 60-yillari oxiri Buxoro amirligi uchun o‘z davlatchilik andozasini qayta ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltirgan tub o‘zgarishlar davri bo‘ldi. 1868-yilda Rossiya imperiyasidan uchralgan harbiy mag‘lubiyat va uning ortidan imzolangan shartnoma shunchaki hududiy yo‘qotish yoki iqtisodiy majburiyat emas, balki amirlikning Markaziy Osiyo geosiyosiy maydonidagi mustaqil ishtirokchi sifatidagi mavqeyining tubdan o‘zgarishi edi [1; p. 18]. Aynan shu tarixiy kesimda amir Muzaffar (hukmronligi 1860–1885) bir vaqtning o‘zida ikki jabha – tashqi “homiy” bilan munosabatlarni barqarorlashtirish va valiahdlik institutini qamrab olgan o‘tkir ichki sulolaviy tanglikni yengish kabi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq vazifalarga duch keldi. Mavjud tarixiy manbalar va tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, amir Muzaffarning katta o‘g‘illari markaziy hokimiyatga qarshi kurash harakatlari va isyonlarda faol qatnashgan, bu esa an’anaviy vorislik tizimining qonuniylik asoslarini yemirgan edi [2; c. 251]. Aynan shunday murakkab geosiyosiy va ichki siyosiy sharoitda amir tomonidan 1869-yilda Sankt-Peterburgga o‘zining 12 yoshli o‘g‘illaridan biri Sayyid Abdulfattoh to‘ra boshchiligidagi elchilikning yuborilishi, odatiy diplomatik marosim doirasidan chiqib, chuqur ilmiy tahlilni talab qiladigan hodisa hisoblanadi.

Mavzuga oid mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, aksariyat tadqiqotlar Rossiya-Buxoro munosabatlarini asosan imperiya kengayishi va “Katta o‘yin” (The Great Game) doirasida o‘rganib, 1868-yilgi shartnomaning harbiy-siyosiy oqibatlariga e‘tibor qaratganlar [3; p. 255]. 1869-yilgi elchilik esa ko‘p hollarda ushbu ulkan jarayonning bir lavhasi, ya’ni Buxoroning tobelik maqomini tan olishining diplomatik ifodasi sifatida talqin etiladi. Biroq, ushbu diplomatik missiyaning Buxoro amirligi ichki siyosatidagi, xususan, valiahdlik tizimi tangligini hal qilishdagi vositaviy roli va uning Buxoro davlatchiligining kelajakdagi taqdiriga ta’siri maxsus, fundamental tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. Ilmiy munozaralarda amir Muzaffar o‘g‘illarining o‘zaro nizolari haqida ma’lumotlar mavjud bo‘lsa-da, 1869-yilgi elchilikning aynan shu muammoni bartaraf etishga yo‘naltirilgan ongli siyosiy tadbir sifatida tahlil qilinishida jiddiy ilmiy bo‘shliq (lakuna) mavjud.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – “Turkiston to‘plami”da aks etgan Rossiya metropoliyasi matbuoti materiallarini tanqidiy tahlil qilish orqali 1869-yilgi elchilikning asl siyosiy-sulolaviy mohiyatini, uning mustamlakachilik tizimining shakllanishidagi o‘rnini ochib berishdan iborat. Tadqiqot zimmasiga quyidagi vazifalar yuklanadi: birinchidan, “Turkiston to‘plami” manbalarini qismlarga ajratib tahlil qilish orqali elchilikning rasmiy (oshkora) va yashirin (botiniy) sabablarini aniqlash va qiyoslash; ikkinchidan, amir Muzaffarning valiahdlik strategiyasini homiy-tobe munosabatlari nazariyasi doirasida tahlil qilish; uchinchidan, o‘n ikki yoshli Sayyid Abdulfattoh to‘ra shaxsining elchilik a‘zosi sifatidagi tanlovining ramziy va siyosiy ahamiyatini baholash; to‘rtinchidan, elchilik missiyasining Buxoro amirligi suverenitetining yemirilishidagi va valiahdlik tizimining evrilishidagi rolini nazariy jihatdan baholash.

Nazariy-uslubiy asos. Tadqiqotning uslubiy poydevorini tarixiy-qiyosiy, tizimli tahlil va manbashunoslikning mustamlakachilik davri va undan keyingi jarayonlarni o‘rganuvchi nazariyalar (postkolonial nazariya) bilan uyg‘unlashgan yondashuvlari tashkil etadi. Asosiy manbalar majmuasi sifatida V.I.Mejov tomonidan tuzilgan “Turkiston to‘plami”ning 27-jildida jamlangan 1869-yilgi Rossiya imperiyasining markaziy davriy nashrlari (“Голосъ”, “Русскій Инвалидъ”, “Всемирная Иллюстрація” va boshqalar) tanlab olindi. Ushbu manbalar o‘zining o‘ziga xos tabiati tufayli alohida qimmatga ega. Birinchidan, ular voqealarga zamondosh bo‘lib, elchilik missiyasining Rossiya siyosiy va ziyoli doiralarida qanday aks-sado berganini va qanday talqin etilganini ko‘rsatuvchi birlamchi yozma yodgorlikdir. Ikkinchidan, ushbu nashrlar rasmiy axborotlar bilan birga, tahliliy sharhlar, taxminlar va norasmiy ma’lumotlarni ham o‘zida jamlagan bo‘lib, bu elchilikning yashirin qatlamlarini anglash uchun imkoniyat yaratadi. Ayni paytda, ushbu manbalar Rossiya imperiyasining manfaatlarini ifodalovchi va uning “sivilizatorlik missiyasi” g‘oyasini ilgari suruvchi mafkuraviy mahsulot ekanligini anglash zarur. Ularda Buxoro amirligiga nisbatan qo‘llanilgan sharqshunoslikka xos sifatlashlar (“varvar”, “qoloq” va h.k.) [4; c. 273] mustamlakachi imperiya nigohining yaqqol namunasidir. Shunga qaramay, ushbu mustamlakachilik bayonini tanqidiy tahlil qilish va undagi faktik materiallarni sinchkovlik bilan ajratib olish orqali Buxoro ichki siyosatining imperiya tomonidan qay tariqa o‘z ta’sir doirasiga tushirib, qanday boshqarilganini qayta tiklash mumkin.

Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy uslub bir voqeaning turli imperiya nashrlari tomonidan yoritilishidagi farqlar va o‘xshashliklarni, shuningdek, elchilikning oshkora va botiniy maqsadlarini solishtirishda qo‘llaniladi. Tizimli tahlil esa elchilik missiyasini Buxoro amirligining ichki (sulolaviy tanglik, o‘g‘illar isyoni) va tashqi (Rossiya bilan yangi nosimmetrik munosabatlar) siyosiy tizimining uzviy bir elementi sifatida, ya’ni homiy-tobe munosabatlari shakllanishining bir bosqichi sifatida o‘rganish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. “Turkiston to‘plami” materiallarida elchilikning oshkora maqsadi sifatida Buxoro amirining Rossiya bilan “do‘stlik rishtalarini mustahkamlash” [5; c. 235], 1868-yilgi harbiy harakatlardan “afsusdaligini bildirish” [6; c. 281] va imperatorga o‘zining samimiy hurmatini izhor etish ekanligi bir necha bor ta’kidlanadi. Amirning rasmiy maktublarida “o‘tmishdagi ko‘ngilsizliklarni unutish”ga da’vat etilib, o‘z o‘g‘lining Sankt-Peterburgga yuborilishi “haqiqiy do‘stlik va sodiqlikning oliy isboti” sifatida taqdim etiladi [7; c. 301]. Shuningdek, elchilik zimmasiga Angliya va Afg‘onistonning mintaqadagi faollashuvi yuzasidan Rossiya hukumatini ogohlantirish vazifasi ham yuklatilgani qayd etiladi [8; c. 257]. Bu rasmiy maqsadlar majmuyi, bir qarashda, mag‘lubiyatga uchragan tobe davlatning o‘z homiysi bilan munosabatlarni barqarorlashtirishga qaratilgan odatiy diplomatik marosimi sifatida ko‘rinadi.

Biroq, “Turkiston to‘plami”da jamlangan deyarli barcha tahliliy materiallar ushbu rasmiy pardaning ortida amir uchun hayot-mamot ahamiyatiga ega bo‘lgan botiniy muddao – sulolaviy vorislik muammosi yotganini bir ovozdan qayd etadi. “Русский Инвалидъ” gazetasi bu haqda ochiqchasiga shunday yozadi: “Lekin boshqa, norasmiy sabablar ham borki, ular amir uchun, aftidan, rasmiylaridan ko‘ra ancha muhimroqdir – bu Buxoro taxtini o‘zining elchi-o‘g‘li uchun kafolatlashdir” [9; c. 235]. Bu fikr boshqa nashrlarda ham deyarli aynan takrorlanadi va mustahkamlanadi [10; c. 299]. Manbalar amir Muzaffarning katta o‘g‘illari, xususan, taxtning an’anaviy vorisi hisoblangan Kattato‘ra (Abdumalik to‘ra) otasiga qarshi isyon ko‘targani, fitnalarda qatnashgani, ulardan biri raqib Xiva xonligidan, boshqasi esa Toshkentda ruslar homiyligidan panohtopganini qayd etadi [11; c. 251]. Bu vaziyatda amir nafaqat o‘z hokimiyatining mo‘rtligidan, balki o‘zidan so‘ng sevikli o‘g‘li Abdulfattohning taxtga o‘tira olmasligidan jiddiy xavotirda edi. Binobarin, elchilikning asosiy strategik maqsadi vorislik masalasini Rossiya imperiyasining siyosiy aralashuvi va irodasi bilan hal qilishga qaratilgan edi. Amir o‘zining 12 yoshli, hali siyosiy fitnalarga aralashib ulgurmagan o‘g‘lini Rossiya imperatoriga tanishtirish orqali, uning taxtga bo‘lgan huquqlarini oliy darajada qonuniylashtirishni va shu orqali ichki raqiblariga Rossiyaning siyosiy homiyligi kim tomonda ekanligini ramziy tarzda ko‘rsatishni maqsad qilgan [12; c. 299].

Elchilik a’zosi sifatida aynan Sayyid Abdulfattohning tanlanishi chuqur ramziy va siyosiy ma’noga ega edi. U manbalarda “amirlik taxtining bo‘lg‘usi sohibi”, “otaning cheksiz muhabbatiga sazovor bo‘lgan” va “yuksak aql-zakovat va go‘zal xulq-atvor sohibi” sifatida tasvirlanadi. Uning voyaga yetmaganligi va saroy fitnalaridan yiroqligi uni otasi uchun ideal voris sifatida gavdalantirgan. Qizig‘i shundaki, bir manbada Abdulfattohning tashqi qiyofasi, isyonkor bo‘lishiga qaramay, to‘ng‘ich o‘g‘il hisoblangan Kattato‘ra (Abdumalik to‘ra)ga juda o‘xshashi va bu holat ota uchun alohida ruhiy ahamiyat kasb etgani ham qayd etilgan [13; c. 259]. Bu detal

amirning qarorida sovuq siyosiy hisob-kitob bilan birga, shaxsiy-hissiy omillar ham muhim rol o'ynaganini ko'rsatadi.

Abdulfattohning Rossiyaga yuborilishi ko'p qatlamli rejaning bir qismi edi. Birinchidan, bu amirning eng qimmatli garovini – o'z vorisini ishonib topshirish orqali Rossiyaga to'liq “tobelik va sadoqat”ni namoyish etish edi [14; c. 275]. Rossiya matbuoti bu qadamni “Rossiyaga bo'lgan yuksak ishonchning amaliy ifodasi” sifatida baholagan. Ikkinchidan, valiahdning metropoliya hayoti, uning texnologik va harbiy qudrati bilan tanishuvi kelajakda uni Buxoroda islohotlar o'tkazishga undashi mumkinligi haqida umid qilingan [15; c. 297]. Hatto Turkiston general-gubernatori K.P. Kaufman amirga o'g'lini Peterburgdagi Pajlar korpusida o'qishga qoldirishni taklif etgani, biroq amir bu taklifni rad etgani haqida ma'lumotlar mavjud [16; c. 273]. Shunga qaramay, elchilikning o'ziyiq Buxoroning bo'lajak hukmdorini Rossiya siyosiy elitasi bilan tanishtirish va uning kelajakdagi hukmronligiga siyosiy-jug'rofiy zamin hozirlash uchun xizmat qildi.

Amir Muzaffar valiahdlik masalasini hal etishda Rossiya omilidan ongli ravishda foydalanish orqali Buxoro davlatchiligining ichki ishlariga tashqi kuchning aralashuvi uchun zamin yaratib berdi. U ichki raqiblariga qarshi kurashda o'zining shaxsiy imkoniyatlari yetarli emasligini anglagan holda, qudratli “tashqi homiy”ning madadiga suyanishni afzal bildi [17; c. 251]. Rossiya matbuoti bu strategiyani quyidagicha sharhlaydi: “...u (amir) o'zining suyukli kenja o'g'li uchun taxtni ta'minlashni istaydi va aynan shu maqsadda Rossiyaning marhamatiga erishishga intiladi, rus hukumati tomonidan o'z vorisiga madad topishga umid qiladi” [18; c. 299].

Bu strategiya ayni paytda Rossiyaning imperiya manfaatlariga to'liq mos kelardi. Garchi ba'zi siyosiy doiralar bu aralashuv Rossiyani “o'ziga mutlaqo yot bo'lgan munosabatlar chigaliga” tortishi mumkinligidan xavotir bildirgan bo'lsalar-da, Sankt-Peterburg Buxoroning ichki ishlariga, xususan, eng nozik masala – taxt vorisligini belgilash jarayoniga aralashish imkoniyatini qo'lga kiritishdan manfaatdor edi. Imperatorning Abdulfattohni shaxsan qabul qilishi va unga qimmatbaho sovg'alar, jumladan, brilliantlar bilan bezatilgan qilich in'om etishi [19; c. 283], amalda uning otasi tomonidan tanlangan voris sifatidagi maqomini tan olish va tasdiqlash harakati edi. Bu Buxoroga qaytgan elchilikning siyosiy salmog'ini keskin oshirib, amirning ichki siyosatdagi mavqeyini mustahkamlashi lozim edi. Shunday qilib, amir Muzaffar o'z sulolasining kelajagini saqlab qolish uchun Buxoro suverenitetining muhim bir qismini – vorisni belgilash huquqini geosiyosiy homiylikka almashtirdi. Biroq, taqdirning achchiq istehzosi shundaki, yosh valiahd ortga qaytish yo'lida qattiq shamollab, uzoq davom etgan kasallikdan so'ng vafot etdi va bu puxta rejalashtirilgan siyosiy rejani yo'qqa chiqardi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni isbotlaydiki, 1869-yilgi Buxoro elchiligi shunchaki diplomatik marosim emas, balki amir Muzaffar tomonidan valiahdlik tizimi tangligini yengish va

o'z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida amalga oshirilgan puxta o'ylangan siyosiy tadbir edi. Bu natijalar tarixshunoslikda mazkur voqeaga berilgan an'anaviy bahoni kengaytirib, uni yangi nazariy bosqichga olib chiqadi. Agar avvalgi tadqiqotlar elchilikni asosan Rossiya-Buxoro munosabatlari, ya'ni tobelikning rasmiylashtirilishi doirasida tahlil etgan bo'lsa, ushbu tahlil uning Buxoro amirligi ichki siyosiy kurashlaridagi vositaviy o'rnini va mustamlaka tizimining shakllanishidagi rolini ochib beradi.

Amir Muzaffarning harakati XIX asr mustamlakachilik davri uchun xos bo'lgan siyosiy strategiyani namoyon etadi: ichki qonuniylik tangligi va imkoniyatlar tanqisligi sharoitida tashqi, qudratli homiyga murojaat qilish orqali o'z hokimiyatini saqlab qolish va mustahkamlash. Amir Rossiya bilan o'rnatilgan yangi nosimmetrik munosabatlar tizimidan nafaqat mag'lub davlat sifatida omon qolish, balki o'zining shaxsiy va sulolaviy manfaatlarini ilgari surish uchun foydalanishga urindi. Bu harakat, o'z navbatida, Buxoro amirligining siyosiy mustaqilligi darajasini yanada pasaytirib, uning ichki ishlariga Rossiyaning aralashuvi uchun doimiy va qonuniy yo'lak yaratdi. Rossiya hukumati, o'z navbatida, Buxoroda o'ziga sodiq va boshqariladigan hukmdorning bo'lishidan manfaatdor bo'lgani uchun amirning ushbu siyosiy o'yinini faol qo'llab-quvvatladi. Bu bilan Rossiya Buxoro taxtining taqdirini hal qiluvchi hakam (arbitr) maqomiga ko'tarildi.

Tadqiqotning ayrim cheklovlari uning asosan bir tomonlama – Rossiya imperiyasi matbuoti manbalariga tayanishi bilan bog'liq. Kelajakdagi tadqiqotlarda Buxoro amirligining o'ziga tegishli arxiv hujjatlari yoki mahalliy solnomalarni jalb etish orqali mavzuni yanada chuqurlashtirish va muammoni “ichkaridan” o'rganish imkoniyati mavjud. Shunga qaramay, “Turkiston to'plami” materiallari imperiya siyosiy elitasining niyatlarini, ularning Buxoro ichki siyosatini qanday talqin qilgani va undan o'z manfaatlarini yo'lida qanday foydalanganini ko'rsatishi bilan beqiyos ahamiyatga ega.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, 1869-yilda Sayyid Abdulfattoh to'ra boshchiligidagi Buxoro elchiligining Rossiyaga safari amir Muzaffar tomonidan amalga oshirilgan ko'p qatlamli va murakkab siyosiy-strategik reja bo'lgan. Uning rasmiy maqsadi Rossiya bilan “do'stona munosabatlar”ni tiklash niqobi ostida, asl mohiyatiga ko'ra Buxoro amirligidagi o'tkir valiahdlik tizimi tangligini Rossiya imperiyasining siyosiy homiyligi orqali hal etish edi. Amir Muzaffar isyonkor katta o'g'illarini valiahdlik tizimidan chetlatib, o'zining sevimli o'g'li Abdulfattohning taxtga bo'lgan huquqlarini Rossiya imperatori tomonidan qonuniy deb tan oldirishga va shu orqali ichki raqiblariga hal qiluvchi siyosiy-mavqeviy zarba berishga urindi.

Ushbu siyosiy harakat amir hokimiyatini qisqa muddatga mustahkamlagan bo'lishi mumkin, ammo uzoq muddatli strategik istiqbolda Buxoro amirligining Rossiyaga siyosiy qaramligini tizimli darajada mustahkamladi va uning ichki ishlariga, xususan, taxt valiahdini belgilash kabi

mustaqillikning eng muhim unsuriga aralashish uchun zamin hozirladi. Shunday qilib, 1869-yilgi elchilik Buxoro tarixida shunchaki bir diplomatik voqea emas, balki amirlikning ichki siyosiy kurashlariga tashqi kuchning hal qiluvchi omil sifatida kirib kelishi va valiahdlik institutining mustamlaka tizimiga bo'ysundirilishining yorqin namunasi bo'lib qoldi. Ushbu tadqiqot Buxoro amirligining so'nggi davri siyosiy tarixini o'rganishda ichki sulolaviy jarayonlar va tashqi imperiya omillarining o'zaro chambarchas bog'liqligini hisobga olish fundamental ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Carrère d'Encausse H. Islam and the Russian Empire: Reform a. revolution in Central Asia / Préf. by Maxime Rodinson; Transl. by Quintin Hoare. – London: Tauris, Cop., 1988. P. 18.
2. Голось. 1869. № 282 // Туркестанский сборник составляемый В.Е.Межовымъ. Т. 27. – Санкт-Петербургъ, 1870. – С. 251.
3. Becker S. Russia's Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva, 1865–1924. – London and New York: RoutledgeCurzon, 2004. P. 255.
4. Всемирная Иллюстрація. 1869. № 43 // Туркестанский сборник составляемый В.Е.Межовымъ. Т. 27. – Санкт-Петербургъ, 1870. – С. 273.
5. Голось. 1869. № 271 // Туркестанский сборник составляемый В.Е.Межовымъ. Т. 27. – Санкт-Петербургъ, 1870. – С. 235.
6. Всемирная Иллюстрація. 1869. № 43 // Туркестанский сборник составляемый В.Е.Межовымъ. Т. 27. – Санкт-Петербургъ, 1870. – С. 281.
7. Новое Время. 1869. № 209 // Туркестанский сборник составляемый В.Е.Межовымъ. Т. 27. – Санкт-Петербургъ, 1870. – С. 301.
8. Русскій Инвалидъ. 1869. № 116 // Туркестанский сборник составляемый В.Е.Межовымъ. Т. 27. – Санкт-Петербургъ, 1870. – С. 257.
9. Голось. 1869. № 271 // Туркестанский сборник составляемый В.Е.Межовымъ. Т. 27. – Санкт-Петербургъ, 1870. – С. 235.
10. Русскія Вѣдомости. 1869. № 213 // Туркестанский сборник составляемый В.Е.Межовымъ. Т. 27. – Санкт-Петербургъ, 1870. – С. 299.
11. Голось. 1869. № 285 // Туркестанский сборник составляемый В.Е.Межовымъ. Т. 27. – Санкт-Петербургъ, 1870. – С. 251.
12. Русскія Вѣдомости. 1869. № 213 // Туркестанский сборник составляемый В.Е.Межовымъ. Т. 27. – Санкт-Петербургъ, 1870. – С. 299.
13. Русскій Инвалидъ. 1869. № 116 // Туркестанский сборник составляемый В.Е.Межовымъ. Т. 27. – Санкт-Петербургъ, 1870. – С. 259.

14. Всемирная Иллюстрация. 1869. № 43 // Туркестанский сборник составляемый В.Е.Межовымъ. Т. 27. – Санкт-Петербургъ, 1870. – С. 275.
15. Биржевыя Вѣдомости. 1869. № 276 // Туркестанский сборник составляемый В.Е.Межовымъ. Т. 27. – Санкт-Петербургъ, 1870. – С. 297.
16. Всемирная Иллюстрация. 1869. № 43 // Туркестанский сборник составляемый В.Е.Межовымъ. Т. 27. – Санкт-Петербургъ, 1870. – С. 273.
17. Голось. 1869. № 285 // Туркестанский сборник составляемый В.Е.Межовымъ. Т. 27. – Санкт-Петербургъ, 1870. – С. 251.
18. Русскія Вѣдомости. 1869. № 213 // Туркестанский сборник составляемый В.Е.Межовымъ. Т. 27. – Санкт-Петербургъ, 1870. – С. 299.
19. Голось. 1869. № 336 // Туркестанский сборник составляемый В.Е.Межовымъ. Т. 27. – Санкт-Петербургъ, 1870. – С. 283.